

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ONGLI O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (3-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGI MISOLIDA)

*Matqurbanova Sevara Ikromjon qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

*E-mail: [sevaramatqurbanova8@gmail.com](mailto:sevaramatqurbanova8@gmail.com) Tel: +998-97 977-52-55*

*Ilmiy rahbar: Djakbarova M.I. Boshlang'ich ta'lif innovatsiyalari kafedrasini  
o'qituvchisi, PhD*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ongli o'qish ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — 3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi misolida o'qish sifatlari, jumladan, ongli, ifodali va tez o'qish malakalarini rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlashdan iborat. Maqolada o'qish jarayonining nafaqat matnni shunchaki o'qish, balki uning mazmun-mohiyatini chuqur tushunish, tahlil qilish va tanqidiy baholash kabi murakkab bosqichlardan iboratligi yoritiladi. O'quvchilarda fikrlash, voqealarni idrok etish va xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda ongli o'qishning fundamental ahamiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dars samaradorligini oshirish uchun qo'llashi mumkin bo'lgan zamонавиy pedagogik usullar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar ko'rsatib beriladi. Xususan, PIRLS Xalqaro baholash dasturining milliy ta'lif tizimimizga tatbiq etilishi fonida o'qish tezligidan ko'ra matnni ongli idrok etishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi nazariy va amaliy jihatdan muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar uchun o'quvchilarda o'qish savodxonligini oshirish va ularda mustahkam bilim asosini yaratishga qaratilgan aniq tavsiyalar va amaliy qo'llanmalar taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** o'qish ko'nikmalar, o'qish sifatlari, ongli o'qish, ifodali o'qish, tez o'qish, diksiya, izohli o'qish, o'qish tezligi.

## МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ОСОЗНАННОГО ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ (НА ПРИМЕРЕ УЧЕБНИКА РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ ДЛЯ 3-ГО КЛАССА)

**Аннотация:** В данной статье дается комплексный анализ научно-методических основ формирования навыков осознанного чтения у учащихся начальной школы. Основной целью исследования является выявление эффективных способов развития навыков чтения, в том числе осознанного, выразительного и быстрого чтения, с использованием учебника для 3-го класса «Родной язык и грамотность чтения». В статье подчеркивается тот факт, что процесс чтения состоит из сложных этапов, таких как не только простое чтение текста, но и глубокое понимание его содержания, анализ и критическая оценка. Подчеркивается



основополагающее значение осознанного чтения в развитии мышления учащихся, восприятия событий и составления выводов. Также показаны современные педагогические методы, интерактивные методы и инновационные подходы, которые могут использовать учителя начальной школы для повышения эффективности урока. В частности, теоретически и практически обсуждается усиление акцента на понимании текста, а не на скорости чтения в контексте внедрения Международной программы оценки PIRLS в нашей национальной системе образования. Результаты исследования предоставляют учителям конкретные рекомендации и практические указания, направленные на повышение грамотности чтения у учащихся и создание у них прочной базы знаний.

**Ключевые слова:** навыки чтения, качества чтения, осознанное чтение, выразительное чтение, скорочтение, дикция, объяснительное чтение, скорость чтения.

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING CONSCIOUS READING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS (USING THE EXAMPLE OF A 3RD GRADE NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY TEXTBOOK)

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the scientific and methodological foundations of the formation of conscious reading skills in primary school students. The main goal of the study is to identify effective ways to develop reading skills, including conscious, expressive and fast reading skills, using the 3rd grade textbook "Mother Language and Reading Literacy". The article highlights the fact that the reading process consists of complex stages such as not only simply reading the text, but also deep understanding of its content, analysis and critical evaluation. The fundamental importance of conscious reading in developing students' thinking, perception of events and drawing conclusions is emphasized. It also shows modern pedagogical methods, interactive methods and innovative approaches that primary school teachers can use to increase the effectiveness of the lesson. In particular, the increasing emphasis on text comprehension rather than reading speed in the context of the implementation of the PIRLS International Assessment Program in our national education system is discussed theoretically and practically. The results of the study provide teachers with specific recommendations and practical guidelines aimed at improving reading literacy in students and creating a solid knowledge base in them.

**Keywords:** reading skills, reading qualities, conscious reading, expressive reading, speed reading, diction, explanatory reading, reading speed.

### KIRISH

Ta'lif jarayonida o'qish ko'nikmalari o'quvchilarning bilim olish faoliyatining asosi hisoblanadi. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish faolligi nafaqat bilim olishning boshlang'ich bosqichi, balki, ularning mantiqiy fikrlash, tushunish va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim vositasidir. Ongli



o'qish faqatgina o'qilgan matnni tushunish bilan cheklanmay, uning mazmun-mohiyatini anglab yetish, o'qish jarayonida o'quvchilarining diqqatini to'liq jamlashni talab qiladi. Bu esa o'quvchilarda fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'qish jarayoniga bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lif tizimiga kirib kelgan PIRLS Xalqaro baholash dasturi ham boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholovchi xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanadi. Ushbu Xalqaro dastur bizga ham kirib kelgandan keyin o'quvchilarining faqatgina matnni o'qish tezligiga emas, balki ongli tarzda tushunib o'qishiga e'tibor kuchaytirildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Avvallari darsda o'quvchilarining matnni ma'lum bir vaqt oraliqida qay darajada tez o'qib tugatishiga e'tibor qaratilgan bo'lsa, bugungi ta'lif dasturida esa normal tezlikda o'qib, matn mazmunini qay darajada anglab olishiga juda katta ahamiyat beriladi.

Tez o'qish – o'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish turi[1].

O'quvchilarda matnni o'qish sur'ati uning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi, o'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi darkor. O'qish sifatlarini o'zlashtirish darajasiga qarab o'quvchilarining o'qish tezligi ham bir-biridan farq qiladi. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keladigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki juda tez yoki juda sekin o'qish ham matn mazmunini anglashni qiyinlashtiradi. 2005-yilda e'lon qilingan o'qish dasturida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish tezligi quyidagicha belgilangan:

Sinflar	1-yarim yillik	2-yarim yillik
1-sinf	_____	20-25 ta so'z
2-sinf	30-35 ta so'z	40-50 ta so'z
3-sinf	60-70 ta so'z	70-80 ta so'z
4-sinf	90-100 ta so'z	110-130 ta so'z

O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi matndagi so'zlarning murakkablik darajasini, so'z va gaplarning tuzilishini ularning o'quvchilar nutqida qay darajada

qo'llanilishini inobatga olishi lozim. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, o'qituvchining vazifasi esa iloji boricha ularning tezligini bir xillikka keltirishdan iborat. Bu natijaga barcha o'quvchilarni matnni ovoz chiqarib birgalikda o'qitish orqali erishish mumkin.

Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Agarda o'quvchi matnni ongli tarzda o'qib, tushungan bo'lsa, u matnning mazmunini, asarning g'oyaviy tuzilishini hamda asarda tasvirlangan voqe-a-hodisalarining bayoni yuzasidan o'z munosabatini ifoda eta olishi lozim. Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar o'qish sifatlarini to'liq o'zlashtirishlari va o'qish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmasligi kerak. Dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning matnni ifodali o'qishiga hamda matn yuzasidan berilgan savollarga qay darajada javob berishiga qarab baholab boradi. O'qish sifatlari orasida ongli o'qish bilan bir qatorda ifodali o'qish ham matn mazmunini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lsa ham, lekin aynan bir xil tushuncha emas.

Ifodali o'qish – ohang yordamida asarning mazmun va g'oyasini aniq shaklda yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. "Ifodali o'qish asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqr tushuntirishdir"[2]. O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallahslari uchun nutq jarayonida nafasni to'g'ri olishlari va to'g'ri taqsimlay bilishlari, har bir tovushni to'g'ri talaffuz qilishlari va aniq diksiya malakasini egallahslari, shu bilan birgalikda adabiy talaffuz me'yorlariga to'liq rioya qilishlari lozim.

Diksiya(lotincha "dictio" – talaffuz) – so'zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, so'zlash usuli. Nutq madaniyatining asosini tashkil etadi[3].

Boshlang'ich sinflarda matnlar bilan ishlash jarayoni asosan sinfdan tashqari o'qish darslarida amalga oshiriladi. Matn mazmunini tushunib o'qish uchun bolalarda faqatgina o'qish ko'nikmalarini shakllantirishning o'zi kamlik qiladi, bolalarda nafaqat o'qish ko'nikmalarini, balki axborotlarni idrok qilish malakasini ham shakllantirish zarur. Odatda boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'quvchilar bilan ishlash davomida talaffuz, turli xil qo'l harakatlari hamda bolalarning obrazli tafakkuriga tayanish kabi bir qancha metodlardan keng foydalanadilar. Ushbu



xildagi metodlardan davomli tarzda foydalanish ko‘p hollarda o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirishga olib keladi. Bu haqida pedagog V.Borodina quyidagicha fikr bildirgan: “O‘quvchilar o‘qishni o‘rgangach ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari tez-tez yo‘qolib, asta-sekin o‘qish darslari og‘ir zaruratga aylanib qoladi. O‘qituvchi zamonaviy ta’lim metodlarini o‘quvchi qiziqishini saqlab qolish uchungina qo‘llashi emas, balki o‘quvchilarni o‘qish va matn ustida ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ustun qo‘yishi kerak. Afsuski, o‘qituvchining: “o‘qing, yana o‘qing, balandroq o‘qing ...” kabi so‘zlarini eshitib qolamiz. Bu o‘qituvchining o‘zi matn mazmuni ustida ishslashning turli usullari to‘liq egallanmaganligidan dalolat beradi”[4].

Ta’lim metodlaridan to‘g‘ri foydalanish darsning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Fanning o‘zi kabi o‘qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo‘ladi. Avvallari o‘qish faqat yod olish asosida o‘rgatilgan bo‘lsa, hozirgi kunda izohli o‘qish asosida olib boriladi. Izohli o‘qishda matndagi so‘zlarga izoh berishga, o‘qilgan matnni qayta hikoyalashga, ma’nosini tushuntirishga, shu bilan birgalikda o‘qishning ongli bo‘lishiga juda katta e’tibor qaratiladi. O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish maqsadida ham izohli o‘qishdan foydalaniladi.

Izohli o‘qish – deb o‘ylashga, his qilishga, asarni to‘liq idrok qilishga, o‘qilgan asarning mazmunini o‘zlashtirishga olib keladigan o‘qishga aytildi. [5]

## NATIJALAR

Izohli o‘qish nafaqat asar mazmunini tushunishni, balki asardagi muhim fikrni hamda yozuvchi ilgari surayotgan bosh g‘oyani anglashni ta’minlaydi. Izohli o‘qishni yanada samarali qiluvchi bir nechta tamoyillar mavjud. Bular:

- a) o‘qishning ongli va ta’sirchan bo‘lishi uchun o‘quvchilarning hayotiy tajribalariga tayanish;
- b) o‘qishni hayot bilan bog‘liq holda tashkil etish;
- c) o‘qishni ko‘rgazmali tarzda tashkil qilish, turli xil tarixiy joylarga sayohatlar uyushtirish, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosini kuzatish;
- d) matnga aloqador bo‘lgan jadvallar bilan ishslash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish darslarida ertaklar, masallar, she’rlar, hikoyalar, maqol va topishmoqlarni o‘qib o‘rganadilar. Ularning har biri o‘ziga xos

uslub, shakl va mazmunda yaratiladi. Misol tariqasida 3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida keltirilgan Xudoyerdi To'xtaboyev qalamiga mansub "Vatan" hikoyasini ongli o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va yozuvchining g'oyaviy maqsadidan kelib chiqib, Vatan tuyg'usi, uni qanday holatda bo'lmasin asrab-avaylash lozimligi haqida atroflicha tushuncha berilgan. Shuningdek hikoyada bolajonlar qalbini jumbushga keltiradigan holat: oddiy qushchaning Vataniga bo'lgan mehr-muhabbati ham keltirilgan. Shu bilan birgalikda Abdurahmon Akbar qalamiga mansub bo'lgan "Metroda" she'rini ham bolajonlar ifodali va ongli o'qish asosida uning ma'nosini, to'liq mazmun-mohiyatini tushunib olishlari ko'zlangan.

### Metroda

Shoshib tushsam metroga,

Bitta bola joy berdi.

Qo'lin qo'yib ko'ksiga:

- O'tiring, aka, - dedi.

Yurmasidan uch bekat

Bir chol kirdi vagonga.

Shartta o'rnimdan turib,

Joy berdim otaxonga.

- Qo'yavering, - desa ham

O'tirolmay bemalol,

Yosh bolali kelinga

Joyin berdi o'sha chol.

O'n chog'li katta-kichik

Shu payt bo'shatdi o'rin.

Bosh chayqadi otaxon –

Qaysarligini ko'ring,

Go'zal edi bu holat,

Nafosatga edi boy!

Hamma yetdi manzilga

Va hammadan qoldi joy...

### Abdurahmon Akbar[6]

Ushbu she'rni ifodali va ongli o'qishga qo'yiladigan vazifalar sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. She'rni diqqat bilan o'qing. Unda nima haqida aytilayotganini tushunishga harakat qiling.
2. She'rdagi asosiy g'oyani topishga harakat qiling.
3. She'rni nima maqsadda o'qishingiz haqida o'ylang.
4. She'rdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ma'nosini izohlang.
5. Qayerda pauzalar bo'lishini belgilang.

Agarda bolalar ushbu she'rni o'qib bo'lishgandan so'ng yuqoridagi savollarga qiynalmay javob bersa, ular asarning mazmunini butkul tushunib yetgan deyishimiz mumkin.

### MUHOKAMA

Boshlang'ich sinflarda o'qish jarayonida o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, o'quvchilar nafaqat matnni tez o'qishlari, balki uning mazmunini chuqur anglab tushunishlari ta'lism Samaradorligini oshiradi. O'qishning faqat tezligi emas, balki ifodali va izohli o'qish orqali o'quvchilarining fikrlash, tahlil qilish va o'z fikrini bildirish qobiliyatları ham rivojlanadi. Shuningdek, o'qituvchining metodik yondashuvi, ya'ni o'quvchilarining o'qish tezligi va tushunish darajasini muvozanatlab, ularga moslashtirilgan darslarni tashkil etishi juda muhim. O'quvchilarga matnni faqat ovoz chiqarib o'qitish bilan cheklanmay, ularning matnga emotsiyal va intellektual jihatdan bog'lanishini ta'minlash orqali o'qishga bo'lgan qiziqish ortadi. Mazkur metodlarni qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish madaniyati va nutq madaniyati yaxshilanadi, ular o'zlarini yanada ishonchli va erkin ifoda eta oladigan shaxsga aylanadi. Bu esa ularning ta'lism jarayonida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday qilib, o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda nafaqat texnik jihatlar, balki matn mazmuniga ongli yondashish, fikr yuritish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilishi zarur.



## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari o‘quvchilarning tafakkurini, tushunish qobiliyatini va matnga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘qish matnni faqat tovushlab yoki yuzaki tarzda o‘qib chiqish emas, balki uning mazmuni, g‘oyasi hamda mohiyatini chuqur idrok etish jarayonidir. Shu sababli, ongli o‘qish bugungi ta’lim tizimida asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. O‘quvchi matnni ongli tarzda tushuna olgan vaqtdagina undagi g‘oyalarni anglab, hayot bilan bog‘lay oladi. Matn ustida ishslash orqali o‘quvchilarning nafaqat o‘qish, balki tahlil qilish, mulohaza yuritish va nutq malakalari ham rivojlanadi. Tez o‘qishga emas, balki ongli tarzda tushunib o‘qishga e’tibor qaratilishi bu boradagi metodik yondashuvning o‘zgarib borayotganligidan dalolat beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘qish tezligi va sifati o‘rtasida muvozanatni saqlashi, ularning alohida rivojlanish darajasini hisobga olgan holda yondashishi darkor. Izohli va ifodali o‘qish usullari orqali bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni asar mazmuniga emotSIONAL jihatdan jalg etish mumkin. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilar o‘qigan matnni eslab qoladi, o‘z hayotiy tajribasi bilan bog‘laydi va kerak bo‘lsa, unga nisbatan o‘z fikrini ham bildiradi. Ta’lim samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar izchil va metodik jihatdan mukammal darslarni tashkil etishlari lozim. O‘qish faolligi, ifodaviylik, diksiya va matnga emotSIONAL yondashuv o‘quvchilarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan o‘qituvchi darsni faqat topshiriqlar bilan emas, balki qiziqarli metodlar, savol-javoblar, hayotiy misollar va faol muloqot orqali boyitishi zarur. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchisida o‘qishga mehr uyg‘otib, mustahkam bilim asosini yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Asqarova M. Boshlang‘ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash dasturidan foydalanish metodikasi. – Namangan.: Arjumand media, 2021. (Asqarova M. Methodology for using the PIRLS international assessment program in primary grades. – Namangan.: Arjumand media, 2021)
2. Xasanov Sh. Badiiy asarning o‘quv tahlilida analitik yondashuv. – T.: Til va adabiyot ta’limi, 2017. (Khasanov Sh. Analytical approach to the educational analysis of a work of art. – T.: Language and Literature Education, 2017)
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Diksiya>



4. Бородина В.А. Развивающие уроки в начальной школе: акмеологический подход. Маленькая книжка о больших проблемах обучения чтению. – СПб.: СПбГАК, 1997.
5. <https://azkurs.org/k-arim-a-q-osim-ova-v2.html?page=43>
6. Ona tili va o'qish savodxonligi kitobi. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – T, 2022. (Mother tongue and reading literacy book. Textbook for the 3rd grade of general secondary schools. – T, 2022)